O‘ZBEKISTON SRRDA SOVET HOKIMIYATINING PEDAGOGIK KADRLAR TAYYORLASH SOHASIDAGI SIYOSATI

Najimidinova Shoxsanam Shorobidin qizi.
Andijon davlat universiteti doktoranti
Email adress: shohsanamnajimidinova@gmail.com
Telefon raqam: +99890 772-00-87

Annotatsiya: *Maqola sovet hokimiyatining 1920-1940-yillarida O‘zbekiston SSRda pedagog kadrlar etishmovchiligini bartaraf etish maqsadida tashkil etilgan dastlabki pedagogika institutlari, ularning faoliyati tarixi yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *ishchilar fakulteti, professor-o‘qituvchilar, akademiya, davlat universiteti, sotsializm, mafkura, kontingent.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются первые педагогические институты, созданные советской властью в Узбекской ССР в 1920-40 годах, и их деятельность.*

Ключевые слова: *рабочие факультеты, профессора-преподаватели, академия, государственный университет, социализм, идеология, контингент.*

Annotation: *This article discusses the first pedagogical institutes established in the Uzbek SSR by Soviet power in the 1920-40s and their activities.*

Key words: *workers' faculty, professor-teachers, academy, state university, socialism, ideology, contingent.*

Sovet hokimiyatining 1920-1930-yillarida O‘zbekistonda bir qancha pedagogika oliy o‘quv yurtlari tashkil etildi. Ulardan birinchisi 1927-yilda Samarqandda ochilgan O‘zbekiston oliy pedagogika instituti (keyinchalik O‘zbekiston Davlat Pedagogika Akademiyasi deb yuritilgan) edi. 1929-yilda uning qoshida bir guruhda 30 kishilik 30 guruhdan iborat ishchilar maktabi, 1930-yilda esa ikki fan: fizika-texnika va ijtimoiy-iqtisodiyot fanlaridan iborat ishchilar universiteti ochildi [3.46]. Tashkil etilgan vaqtda qirq ellikka yaqin talabalar kontingentiga ega bo‘lgan kichik ta’lim muassasasidan O‘zbekiston davlat oliy pedagogika instituti tez rivojlanib, bir necha yil ichida yirik pedagogika universitetiga aylandi.

Sovet hokimiyati mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohalar kabi ma’naviy hayotga ham o‘zlarining sotsialistik mafkurasini singdirish uchun “maorif”, “maktab”, “o‘qituvchilar” muammolarini xal qilishga kirishdilar. Ayniqsa, ta’lim sohasida bu xolat yaqqol namoyon bo‘ldi. Bolsheviklarning ta’lim tizimida olib borgan siyosati eng avvalo sotsialistik jamiyat kishisini tarbiyalash, sovet hokimiyatiga sadoqatli avlodlarni tarbiyalab etishtirishga qaratilgan edi. Bunday siyosatni amalga oshirishda pedagogika institutlarining tashkil etilishi juda muhim ahamiyat kasb etardi.

O‘zbekiston davlat pedagogika akademiyasining o‘quv, uslubiy va ilmiy-tadqiqot faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini, unda yuqori malakali professor-o‘qituvchilar tarkibi mavjudligini, shuningdek, o‘rta va oliy maktablar uchun yetarli miqdordagi professor-o‘qituvchilarni tayyorlash uchun uning fakultet va kafedralarini kengaytirish zarurligini hisobga olib, O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasi va O‘zSSR Xalq Komissarlari Sovetining qarori bilan 1930-yilda o‘n bir bo‘limdan iborat, ya’ni ijtimoiy-iqtisodiyot, til va adabiyot, tabiiy, jismoniy-texnika, pedagogika, maktab,

siyosiy-ma'rifiy, maktabgacha, maktabdan tashqari, o'simlikchilik, chorvachilik bo'limlaridan tashkil topgan O'zbekiston Davlat Pedagogika Akademiyasi deb nomlandi. O'zbekiston davlat pedagogika akademiyasi muvaffaqiyatli rivojlandi, uning talabalari soni muttasil ko'payib bordi, o'quv-uslubiy ishlar takomillashdi, professor-o'qituvchilar tarkibi sifat jihatidan ko'paydi. U pedagogik va tarbiyaviy ishlarning barcha bo'g'inlarida yuqori malakali o'qituvchilarning ustaxonasiga aylandi va ularni asosan mahalliy millatlardan ko'p miqdorda tayyorlay boshladi, bu esa ulkan siyosiy va madaniy ahamiyatga ega edi.

Bularning barchasi O'zbekiston davlat pedagogika akademiyasi negizida davlat universitetini tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlarni tayyorlash imkonini berdi. 1932-yil 9-dekabrda O'zbekiston KP (b) MK Byurosi SSSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasining 1932-yil 19-noyabrdagi qarori asosida oliy maktablar va texnikumlar bo'yicha O'zbekiston Kompartiyasi(b) MK qaroriga muvofiq O'zbekiston Pedagogika Akademiyasi va Tibbiyot instituti negizida Samarqandda oltita, yani universitetlar uchun o'qituvchilar tayyorlaydigan fizika-matematika, tabiiy biologiya, tarix-iqtisodiyot, kimyo, tibbiyot, o'zbek tili va adabiyoti fakultetlaridan iborat O'zbekiston Davlat universitetini tashkil etishga qaror qildi [1.34-35].

Shunday qilib, xalq xo'jaligidagi talab va extiojdan kelib chiqib Respublikamizda ikkinchi universitet ham tashkil etildi. Uning mustahkamlanishiga O'zbekiston hukumatining kundalik g'amxo'rligi sabab bo'ldi, u 1933-yilning o'zida O'zbekiston Davlat universitetining zaruriy ehtiyojlari uchun besh million rubldan ortiq mablag' ajratdi [4.5]. Yangi universitet 1933-yil yanvardan ishlay boshladi.

Samarqanddagi O‘zbekiston davlat oliy pedagogika institutidan keyin yana bir pedagogik oliy dargox Toshkent kechki pedagogika instituti (hozirgi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat universiteti) bo‘lib, u yillari Toshkent davlat pedagogika institutining kechki bo‘limini tashkil etib, o‘zining mavjud bo‘lgan yillari, ayniqsa, urushgacha bo‘lgan davr mobaynida malakali o'qituvchilarni tayyorlagan. Jamoatchilikning yuzlab va minglab kashshoflari uning devorlarida yuqori pedagogik ta'lim olgani diqqatga sazovordir. Toshkentdagi kechki pedagogika universitetining respublikamizning ko‘plab shaharlarida filiallari bo‘lib, ularda ham ishlab chiqarishdan uzilmagan holda o‘quv darslari olib borilgan.

1930-yildan boshlab O‘zbekiston SSRning Buxoro, Samarqand, Farg‘ona, Namangan, Andijon, Marg‘ilon, Toshkent, Nukus, Xorazm, Urganch shaharlarida pedagogika va o‘qituvchilar institutlari tashkil etildi [5.177]. Jumladan, Buxoro davlat pedagogika instituti 1930-yil 1-sentyabrda ochilib, ko‘rilayotgan davrda Q. Vahobov (1930-1935-yillar), D. Rajabov (1935-1936-yillar), Ter-Ishxanov (1937-1938-yillar), A.R. Rustamov (1938-1939-yillar), A.I. Sibizova (1939-1940-yillar), M.X. Davlat-Yusupov (1940-1944-yillar) institut rektori sifatida faoliyat olib borgan edilar [6.420].

Sotsializmning batafsil qurilishi bo'yicha amalga oshirilgan vazifalar madaniy qurilishning barcha havolalari uchun juda ko'p sonli o'qituvchilar tarkibi mavjud bo'lsa, muvaffaqiyatli hal qilinishi mumkin. Bu O'zbekiston va Ittifoqning boshqa respublikalari qator pedagogik universitetlarini yaratish zarurligini keltirib chiqardi.

1930-yilda O‘zbekistonda deyarli bir vaqtda ikkita pedagogika instituti paydo bo‘ldi: biri Farg‘onada, ikkinchisi Buxoroda.

1930-yilning 1-sentyabridan Farg‘ona davlat pedagogika instituti ham o‘z faoliyatini boshladi. 1930-1931-o‘quv yilining birinchi semestrida institutda 140 nafar talaba o‘rniga 120 nafar talaba ta’lim ola boshladi. Institut direktori professor A.M.Krasnousov rahbar organlarga yozgan bildirishnomasida qabul qilingan ayrim talabalarning umumiy bilim darajasi va ijtimoiy-siyosiy saviyasi pastligini e’tirof etgan edi.[2.45-46].

Buxoro davlat pedagogika instituti 1930-yil 1-sentyabrda ochilib, ko‘rilayotgan davrda Q. Vahobov (1930-1935-yillar), D. Rajabov (1935-1936-yillar), Ter-Ishxanov (1937-1938-yillar), A.R. Rustamov (1938-1939-yillar), A.I. Sibizova (1939-1940-yillar), M.X. Davlat-Yusupov (1940-1944-yillar) institut rektori sifatida faoliyat olib borgan edilar[6.420]. Bu institutlarning har ikkalasining ham xarakterli jihati shundaki, ular tashkil etilgan birinchi yillarida talabalar soni kam bo‘lgan, aniq maqsadlarga ega bo‘lmagan, ko‘plab fanlar bo‘yicha aniq ishlab chiqilgan o‘quv reja va dasturlari bo‘lmagan.

Buxoro pedagogika institutida ahvol bundan ham og‘ir edi. 1933-yilda tashkil etilganining uchinchi yilida universitetda mutaxassis profillari ishlab chiqilmagan va talabalar ulardan qaysi biri tayyorlanayotgani va ularga qanday talablar qo'yilganligini bilishmagan. Ayniqsa, katta kurslar orasida o'z mutaxassisligini bilmasliklari sezilarli darajada bilinar edi, ular profillari bir necha bor o'zgarganini institutda o'qish davomida ko'rgan.

Bunday vaziyatga barham berishning va ushbu pedagogik institutlar faoliyatida noma'lumlik, noaniqlikni bekor qilishning iloji yo'q edi. Bularga qo‘shimcha ravishda, o‘qituvchilar, talabalar orasida ham umumiy ma’lumot darajasi past bo‘lgan ko‘plab malakasiz shaxslar kiritilgani Farg‘ona va Buxorodagi pedagogika oliy o‘quv yurtlari faoliyatini normallashtirishni yanada qiyinlashtirdi. Pedagogik institutlarning ishini normallashtirish va

ularda kadrlar tayyorlashni yaxshilash O‘zbekiston Kompartiyasi(b) Markaziy qo'mitasi Buxoro va Farg'ona shahridagi joylarda yordam berish uchun brigada yubordi. Buning sharofati bilan 1934-yildayoq ularda o‘quv-tarbiya ishlarida sezilarli yaxshilanish boshlandi, keyingi yillarda esa ular yanada mustahkamlanib, respublikamizning nisbatan mustahkam va barqaror oliy o‘quv yurtlariga aylandi.

1939-yilda Andijon kechki pedagogika instituti bazasida Andijon o‘qituvchilar instituti ham tashkil etilib, ushbu oliy o‘quv yurti ham o‘qituvchi kadrlar tayyorlashni boshlagan edi [7.78].

1939-yil Qo‘qon davlat pedagogika instituti ochilib, respublika ma’orif tizimi uchun kadrlar tayyorlashni boshlagan edi [8.110].

Biz o‘rgangan davrdagi so‘nggi pedagogika instituti 1939-yilda Samarqandda tashkil etilgan bo‘lib, u Ulug‘ Vatan urushi yillarida O‘zbekiston Davlat universiteti bilan birlashgan.

Xullas, sovet hokimiyatining 1920-1940 yillarida O‘zbekistonda tashkil etilgan ayrim pedagogika oliy o‘quv yurtlari, etarli darajada moddiy - texnik baza va professor-o‘qituvchilar bilan ta’minlanmaganligi sabab faoliyatlari to‘xtatishga majbur bo‘lgan bo‘lsa-da, bir qancha oliy ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya faoliyatida sezilarli ijibiy o‘zgarishlar boshlandi, keyingi yillarda esa ular yanada mustahkamlanib, respublikamizning nisbatan mustahkam va barqaror oliy o‘quv yurtlariga aylangan edi. Bunday oliy o‘quv yurtlari kelgusida Respublikaning oliy malakali mutaxassislarga bo‘lgan talabni qondirish xizmat qilgan edi.

FOYDALANGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. O‘z R PAA, 58-fond, 8-ro’yxat, 843-yig’ma jild;

2. O’z MA, 94-fond, 5-ro’yxat, 2179-yig’ma jild, 45-46-varaqlar.

3. Умаров С.У. Высшее образование в Узбекистане за 25 лет. – Ташкент, 1949.

4. Ректор УзГУ, Штаб науки в Узбекистане. г. “Қизил Ўзбекистон” за 11 апреля 1933 г.

5. Қори Ниёзов Т.Н. Совет Ўзбекистони маданияти тарихидан очерклар. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси нашриёти, 1956.

6. Ражабов Қ., Иноятов С. Бухоро тарихи. – Тошкент: Tafakkur, 2016.

7. Шамсутдинов Р.Т. Первенец высшей школы. Краткий очерк истории Андижанского государственного педагогического института им. З.М. Бабура. – Ташкент: Узбекистан, 1989.

8. Маҳмудов А., Тўхтасинов И., Гольверк М., Ғофуров А. Фарғона области. – Тошкент: Ўзбекистон, 1974.